

"Maxam-Chirchiq" Ajda sodir bo'lgan portlash yuzasidan qo'shimcha ma'lumot

// 04.10.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxsam-chirchiq-rasmiy-bayonot-qushimcha-malumot-2>

"O'zbekimiyosanoat" AJ tizimidagi "Maxam-Chirchiq" Ajning Ammiak-1 ishlab chiqarish sexi sintez bo'linmasida bugun sodir bo'lgan portlash natijasida sexning sintez kalonnasida kelib chiqqan yong'in o'chirildi. Vaziyat to'liq nazorat ostida. Hodisa oqibatida sexning 2 nafar xodimi jarohatlangan va hozirda ularga shifoxonada tibbiy muolajalar ko'rsatilmoqda.

Holat yuzasidan tezkorlik bilan axborotlar taqdim etib boriladi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati